



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING
QARORI

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2024 - yil 29 - mart

141-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan amalda foydalanib kelayotgan viloyat hududida joylashgan (oqib o‘tgan) 12 ta Oqdaryo, Qoradaryo, Kichik o‘ra, Katta o‘ra, G‘uzor daryo, Ayoqchi daryo, Qumdaryo, Yakkabog‘daryo (*Qizildaryo*), Turnabuloq, Guldara, Langar va Oqsuvdaryolarining foydalanishida bo‘lgan (egallab turgan) va sohil bo‘yi mintaqa maydonidagi yer uchastkalarini doimiy foydalanish huquqi asosida ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni ijrosiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 2024-yil 26-yanvardagi №01-10/52-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan amalda foydalanib kelayotgan viloyat hududida joylashgan (oqib o‘tgan) 12 ta Shahrisabz tumanidagi Oqdaryo va Qoradaryo,

Dehqonobod tumanidagi Kichik o‘ra daryosi, Qamashi va Dehqonobod tumanidagi Katta o‘ra daryosi, G‘uzor tumanidagi G‘uzordaryo, Kitob tumanidagi Ayoqchidaryo, Chiroqchi va Ko‘kdala tumanlaridagi Qumdaryo, Yakkabog‘ va Shahrisabz tumanlaridagi Yakkabog‘ daryo (Qizildaryo), Yakkabog‘ tumanidagi Turnabuloq va Guldaradaryosi, Qamashi tumanidagi Langar va Oqsuvdaryolarining foydalanishida bo‘lgan (egallab turgan) jami 5682,97 gektar (shundan 2052,60 gektar daryo uzani maydoni, 3630,37 gektar sohil bo‘yi mintaqa) maydonlaridan iborat qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlari ilovaga muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga (G‘.Hamroyev) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli 12 ta Oqdaryo, Qoradaryo, Kichik o‘ra, Katta o‘ra, G‘uzordaryo, Ayoqchidaryo, Qumdaryo, Yakkabog‘ daryo (*Qizildaryo*), Turnabuloq, Guldara, Langar va Oqsuvdaryolarining foydalanishida bo‘lgan yer maydonlarini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlab, yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish topshirilsin.

4. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi va Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi birgalikda 12 ta Oqdaryo, Qoradaryo, Kichik o‘ra, Katta o‘ra, G‘uzordaryo, Ayoqchidaryo, Qumdaryo, Yakkabog‘ daryo (*Qizildaryo*), Turnabuloq, Guldara, Langar va Oqsuvdaryolarining foydalanishida bo‘lgan yer maydonlaridan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

5. Ajratilgan yer maydonlaridan belgilangan maqsadlarda foydalanilmaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

6. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining www.qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytida e‘lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat
hokimining
2024-yil 29-martdagi
141-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo
Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tasarrufidagi Qashqadaryo
viloyati hududida joylashgan (oqib o'tgan) daryolar yer maydonlarini
xatlovdan o'tkazish natijasi to'g'risida
MA'LUMOT**

T/r	Obyekt nomi	Hudud nomi	Umumiy uzunligi, km	Daryo foydalani- shidagi yer maydoni, ga	Shundan	
					Daryo uzani maydoni	Sohil bo'yi mintaqa maydoni
1	2	3	4	5	6	7
1	"Oqdaryo" daryosi	Shahrisabz tumani	30,50	240,71	50,62	190,09
2	"Qoradaryo" daryosi	Shahrisabz tumani	4,5	25,60	11,61	13,99
3	"Kichik o'ra" daryosi	Dehqonobod tumani	94,30	923,89	33,52	890,37
4	"Katta o'ra" daryosi	Dehqonobod tumani (PK 0-17,50-94)	61,85	795,98	418,84	377,14
		Qamashi tumani (PK17-50)	33,00	302,44	129,53	172,91
		Jami:	94,85	1098,42	548,37	550,05
5	"G'uzor" daryosi	G'uzor tumani	84,10	664,05	242,53	421,52
6	"Ayoqchidaryo" daryosi	Kitob tumani	40,30	394,29	173,94	220,35
		Chiroqchi tumani	9,60	58,66	13,69	44,97
		Jami:	49,90	452,95	187,63	265,32

7	"Qumdaryo" daryosi	Chiroqchi tumani	33,00	427,12	120,41	306,71
		Ko'kdala tumani	40,50	396,75	113,37	283,38
		Jami:	73,50	823,87	233,78	590,09
8	"Yakkabog' daryo (Qizildaryo)	Yakkabog' tumani	40,45	530,25	305,70	224,55
		Shahrisabz tumani	6	86,53	56,13	30,40
		Jami:	46,45	616,78	361,83	254,95
9	"Turnabuloq" daryosi	Yakkabog' tumani	18,00	100,13	24,68	75,45
10	"Gudara" daryosi	Yakkabog' tumani	29,00	297,33	140,48	156,85
11	"Langar" daryosi	Qamashi tumani	45,00	397,40	206,18	191,22
12	"Oqsuv" daryosi	Qamashi tumani	7,30	41,84	11,37	30,47
Hammasi:			577,40	5682,97	2052,60	3630,37